

QISHLOQ XO‘JALIGI TERMINLARINING BADIY MATNDA EPITET SIFATIDA QO‘LLANILISHI

Maxmudova Dilafruz Alijonovna

Qo‘qon davlat universiteti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrası o‘qituvchisi

dilafruzmaxmudova137@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilidagi qishloq xo‘jaligi terminlarining badiiy matnda epitet sifatida qo‘llanilishi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek qishloq xo‘jaligi terminlarining o‘xshatish hosil qilishdagi lingvopoetik imkoniyatlari hamda o‘zbek adabiyotidagi namunalari ilmiy jihatdan yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *qishloq xo‘jaligi terminlari, epitet, o‘xshatish, metafora, lingvopoetika, badiiy nutq, obrazlilik .*

Hozirgi zamon tilshunosligida terminlarning badiiy matnda funksional imkoniyatlari keng o‘rganilmoqda. Terminlar nafaqat ilmiy va texnik adabiyotda, balki badiiy asarlarda ham faol ishlatiladi. Qishloq xo‘jaligi terminlari xalqimiz-ning ming yillik madaniy merosini o‘zida mujassamlashtiradi va badiiy matnda alohida o‘rin tutadi.

Terminologiyani tadqiq qilish borasidagi ilmiy izlanishlarda terminlarning badiiy matndagi qo‘llanilishi va ularning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, terminlarning funksional xususiyatlarini aniqlashda ularning badiiy matnda epitet sifatida qo‘llanib, poetik jihatdan faollashuvi masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Terminlarning epitet sifatida qo‘llanilishi jarayonida semantik ko‘chish hodisasi yuz beradi. Ya‘ni termin o‘zining to‘g‘ridan to‘g‘ri ma‘nosidan abstrakt, ko‘chma ma‘noga o‘tadi. Bu jarayonda terminning ichki semantik imkoniyatlari ochiladi va u yangi ekspressiv xususiyatlarni namoyon etadi.

Ma‘lumki, “epitet” (yunoncha “epitheton” – “ilova qilingan, izohlovchi”) – bu predmet yoki hodisaning muhim belgisini obrazli tarzda ifodalovchi badiiy aniqlovchidir. Tildagi grammatik nuqtayi nazardan epitet har doim aniqlovchi sifatida keladi, biroq u oddiy aniqlovchidan tubdan farq qiladi va badiiy funksiya bajaradi: oddiy aniqlovchi faqatgina predmet yoki hodisani boshqa predmetlardan ajratib beradigan belgi bo‘lsa (“yolg‘iz ayol”), epitet esa shu predmetga xos bo‘lgan xarakterli, badiiy, ko‘pincha ko‘chma ma‘no kasb etgan belgini (masalan, “Xiyobondagi yolg‘iz daraxt”) bo‘rttirib ko‘rsatadi. Ko‘p hollarda epitet aynan ko‘chma (metaforik) ma‘noda ishlatiladi va shuning uchun “metaforik epitet” deb yuritiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, epitet badiiy tasvir vositasi sifatida nutq jarayonida tilning ichki ijodiy imkoniyatlari asosida yuzaga keladi. Shu bilan birga, epitet yordamida muallifning tasvirlanayotgan predmet yoki hodisalarga o‘ziga xos munosabati va badiiy didi, yashirish bilan emas, balki ochiq-oydin ifodalanadi. Epitet o‘z mohiyatiga ko‘ra murakkab tasvir

vositasi bo‘lib, o‘xshatish va metaforaga juda yaqin tursa-da, ayrim tipik xususiyatlar orqali ulardan farqlanadi⁸⁸.

D. Xo‘jayevaning ta’kidlashicha, “epitet juda qadimdan adabiyotshunoslar, keyinchalik tilshunoslar e’tiborini tortgan hodisadir. U XV asrdayoq fors va o‘zbek adabiyotshunosligida istiora tarkibida o‘rganila boshlangan. XIX asrga kelib esa, g‘arb tilshunoslik fanining ham e’tiboriga tushgan va epitet nomi bilan Adelong, A. Ben singari olimlar asarlarida o‘z aksini topgan”. Shuni alohida qayd etish joizki, epitet sifatlashning bir turi bo‘lib, odatiy sifatlashdan aynan ekspressivligi, ko‘chma ma’no bilan ishlatilishi va tasvir asosida muhim qirralarni bo‘rttirib ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Bunday poetik aniqlovchi, ayniqsa, she’riy matnlarda so‘zning estetik va hissiy ta’siri baland bo‘lishi lozim bo‘lganida muhim ahamiyatga ega⁸⁹.

O‘zbek tili leksik tarkibining muayyan qismini tashkil etuvchi terminlar ham, badiiy matnda epitet sifatida namoyon bo‘lganida, predmet va hodisalarga xos xarakterli belgini emotsional-uslubiy bo‘yoq bilan ta’kidlashga xizmat qiladi. Terminning epitetga aylanish jarayonida metafora markaziy o‘rin tutadi. Bunda ikki, nazaraya, bir-biriga uzoq bo‘lgan tushunchalar – insonning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari va tabiat hodisasi, dehqonchilik obyekti o‘rtasida qiyosiy bog‘liqlik yaratiladi. Bunday qiyos xalqning asriy kuzatuvlari va falsafiy tafakkuri mahsulidir. Quyidagi she’riy parcha bunga yorqin misol bo‘la oladi:

Mening yuragim – bir hosildor zamin,

Shirin orzularning ekilgan yeri.

Unda ko‘karadi ishonch har onim,

Umidim boshog‘i – hayotning siri. (Oybek)

Ushbu misralarda “*hosildor*”, “*shirin*”, “*ekilgan*”, “*ko‘karadi*”, “*boshog‘i*” kabi bir nechta qishloq xo‘jaligi terminlari epitet vazifasida kelgan. Ularning har biri lirik qahramonning ruhiy holatini tasvirlash uchun xizmat qilmoqda. Eng avvalo, “*hosildor*” terminini tahlil qilaylik⁹⁰.

“*Hosildor*” termini agronomiyada tuproqning unumdorligi, o‘simlik navining yuqori mahsuldorligi kabi aniq, texnik ma’noni ifodalaydi. Masalan, “*hosildor tuproq*”, “*hosildor bodom navi*” birikmalarida u o‘zining asl ma’nosida qo‘llangan. Biroq Oybekning she’rida “*hosildor zamin*” deya sifatlanayotgan narsa moddiy yer emas, balki inson yuragidir. Bu yerda termin o‘z denotativ ma’nosidan uzilib, keng ramziy ma’no kasb etmoqda. Shoir yurakni hosildor zaminga qiyoslash orqali uning mehr-muhabbat, ezgulik, ilhom kabi yuksak tuyg‘ularni yaratishga, dunyoga taqdim etishga qodir ekanligini bo‘rttirib ko‘rsatgan. Xuddi hosildor yer mehnat evaziga mo‘l ne‘mat berganidek, “*hosildor yurak*” ham ezgulik urug‘lari ekilsa, mehr va vafu hosilini beradi. Bu o‘rinda termin sof hissiy-ekspressiv vazifani bajarib, metaforik epitetni yuzaga keltirmoqda⁹¹.

⁸⁸ Жамолиддинова Дилноза Мирхожиддиновна Терминларнинг лингвомаданий бирлик вазифасини бажариши хусусида баъзи мулоҳазалар // World of Philology. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/terminlarning-lingvomadaniy-birlik-vazifasini-bazharishi-hususida-bazi-mulo-azalar> (murojaat sanasi: 07.07.2025)

⁸⁹ Хўжаева Д. Ўзбек тилида эпитет: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б. 6.

⁹⁰ Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 239.

⁹¹ Асқарова М. Ўзбек тилида бадий тасвир воситалари. – Тошкент, 1995. – Б. 123.

“*Ekilgan*” termini – qishloq xo‘jaligida urug‘ yoki ko‘chatni yerga joylashtirish, yangi hosilga asos solish jarayonini anglatadi. Bu – aniq va moddiy harakat⁹². Ammo she‘rda bu harakat moddiy dunyodan ma‘naviy olamga ko‘chadi: orzular “*ekilmoqda*”.

Shuningdek, “*shirin*” epiteti ham alohida e‘tiborga loyiq. Bu so‘z odatda mevalarning ta‘mini, masalan “*shirin o‘rik*”, “*shirin uzum*” kabilarni sifatlash uchun ishlatiladi. Uning orzuga nisbatan qo‘llanilishi esa sinesteziya hodisasini, ya‘ni ta‘m bilish sezgisi orqali his qilinadigan holatni abstrakt tushunchaga ko‘chirishni yuzaga keltiradi. Orzularning “*shirin*” deya sifatlanishi ularning insonga zavq, lazzat, yashashga umid bag‘ishlashini, kelajakdan yoqimli natijalar kutilayotganini kuchli hissiy bo‘yoqdorlik bilan ifodalaydi. Bu o‘rinda ham termin o‘z birlamchi ma‘nosini kengaytirib, insonning ichki kechinmalarini yorqin tasvirlovchi metaforik epitetga aylangan. Bunday qo‘llanishlar she‘rga nafislik va chuqur lirizm baxsh etadi.

“*Boshog‘I*” terminining badiiy matndagi vazifasiga to‘xtalamiz. Qalb zaminiga ekilgan ishonch va orzu urug‘lari mantiqan o‘z hosilini berishi kerak. Shoir bu hosilni “umidim boshog‘I” deya umumlashtiradi.

“*Boshog‘I*” – agronomiyada g‘alla o‘simliklarining don yetishtiradigan qismi, dehqon mehnatining eng oliy natijasi va ramzi⁹³. U to‘kinlik, baraka va mehnat samarasi kabi ma‘nolarni o‘zida mujassamlashtiradi. She‘riy matnda esa “*boshog‘I*” termini moddiy ne‘mat timsolidan inson umidining ro‘yobga chiqqan, Voqelikka aylangan shakli timsoliga o‘tadi. “*Umidim boshog‘I*” birikmasi shunchaki quruq umidni emas, balki mehnat va ishonch bilan sug‘orilib, yetilgan, mag‘zi to‘q, salmoqli natijani anglatadi.

Quyidagi misolda esa boshqa bir qishloq xo‘jalik terminining inson xarakterini tasvirlashdagi o‘rnini ko‘ramiz:

Qaddi-basti xuddi terakdek tik,

So‘zida yo‘q edi hech qanday chirik. (G‘afur G‘ulom)

Bu misralarda “*terak*” va “*chirik*” terminlari inson siyratini yaratishga xizmat qilmoqda. Bu o‘rinda ularning badiiy vazifasi ham alohida tahlilni talab etadi.

“*Terak*” termini dendrologiyada baland, tik o‘sovchi, yog‘ochi yumshoq, lekin tanasi mustahkam daraxt turini anglatadi⁹⁴. Xalq tasavvurida terak – g‘urur, viqor, salobat va to‘g‘rilik timsoli sifatida gavdalanadi. G‘afur G‘ulom yuqoridagi misrada aynan shu xalqona tasavvurga tayanadi. “*Terakdek tik*” epiteti qahramonning nafaqat jismoniy qaddi-qomati to‘g‘riligini, balki uning ma‘naviy dunyosi, hayotiy pozitsiyasi ham shunday tik, egilmas, mag‘rur ekanini ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Demak, terminologik birliklar ham boshqa leksik vositalar kabi o‘zining semantik-struktur, kommunikativ-estetik va boshqa xususiyatlarini to‘liq faqat matn qurshovida namoyon etadi. Shu bois ularni ilmiy jihatdan izchil talqin etish uchun terminlarni matn doirasida tahlil qilish zarur.

⁹² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2022. 5-жилд. – Б.327.

⁹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2022. 5-жилд. – Б.327.

⁹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2022. 5-жилд. – Б.327.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hojiyev A. O‘zbek tili terminologiyasi. – Toshkent: Fan, 2011.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent, 2008.
5. Makhmudova D.A. National-Cultural Semantics Of Agricultural Terms In Artistic Works // Educator Insights: A Journal of Teaching Theory and Practice, Volume-01/Issue 06, June, 2025. – Pp. 183-188. (ISSN:3061-6964, №12, Impact factor:10,36)
6. Makhmudova D.A. Places Of Use And Classification Of Agricultural Terms In Artistic Text // EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, Volume 01/Issue 06, June, 2025. – Pp. 178-183. (ISSN:3061-6972, №11, Impact factor:10,22)
7. Maxmudova D.A. Badiiy matnda qishloq xo‘jaligi terminlarining aks ettirilishi // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2023, 3-son. – B. 424-428. (10.00.00. – №26).
8. Maxmudova D.A. Qishloq xo‘jaligi terminlari badiiy adabiyotda sayqallanishi // @Til va adabiyot.uz. – Toshkent, 2024. – №20/1. – B. 105-107. (OAK Rayosatining 2023 - yil 3-iyundagi 338/6-son qarori)
9. Makhmudova D.A. Agricultural Terms // Conference On Scientific Research And Problems Of Society, January 10, 2023. – Pp. 85-88.
10. Maxmudova D.A. Badiiy matnda qishloq xo‘jaligi terminlaridan foydalanish matn ta’sirchanligini oshiruvchi omil sifatida // “Boshlang‘ich ta’limning zamonaviy tendensiyalari: ta’lim va tarbiya integratsiyasi” III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Jizzax, 2023-yil 4-may. – B. 143-145.
11. Maxmudova D.A. Qishloq xo‘jaligi terminlarining badiylashuvi // Filologiyaning dolzarb masalalari (Professor Odiljon Bozorov tavalludining 75 yilligiga bag‘ishlanadi). – Qo‘qon, 2023. – B. 250-252.
12. Maxmudova D.A. Qishloq xo‘jaligi terminlari lingvopoetikasi // “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va neyropsixolingvistika muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg‘ona: FarDU, 2024. – B. 302-304.